



TARIXIY ROMANLARDA AYOLLAR OBRAZINING O'RGANILISHI

Hamroyeva Mohinabonu

Osiyo Xalqaro Universiteti

O'zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistri

Ilmiy rahbar: Sh.N.Ahmedova

Professor, Osiyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida ayol obrazining tarixiy shakllanishi, jamiyatdagi o'zgarishlarga qarab o'zgarib borgan badiiy talqinlari tahlil qilinadi. Xususan, bir qancha tarixiy romanlarda tarixiy malikalar timsoli, ayollarning psixologik tasvirlari haqida ma'lumot beriladi. Maqolada tarixiy romanlarda ayollar obrazining o'rganilishi asos qilib olinadi.*

Kalit so'zlar: *Ayol obrazi, tarixiy romanlar, ma'naviy qadriyat, tarixiy haqiqat va badiiy to'qima, adabiy talqin, matonat, estetik yondashuv.*

Azal-azaldan ilm-u ma'rifatning beshigi sanalgan vatanimiz tarixini chuqurroq o'rganish, ajdodlar ma'naviy merosini tiklash bugunning dolzarb masalalaridan hisoblangan. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek, "Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak." [1]

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, adabiyotshunoslikda, ayniqsa Shahodat Isaxonova romanlarida ayollar obrazini o'rganish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanib, uni quyidagicha tasniflash mumkin.

- Tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligi;

Bunda To'maris, Bibixonim, Gavharshodbegim, hamda Nodirabegim kabi ayol obrazlarning tarixiy hujjatlardagi o'rnini o'rganamiz. Yozuvchi tomonidan badiiy to'qimadan foydalanish chegaralari ko'rib chiqiladi.

- Ijtimoiy va siyosiy faollik tahlili

Bu yo'nalishda tarixda ayollarning faqat oila bekasigina emas, davlat arbobi, ma'naviyat homiysi sifatida talqin qilish o'rganiladi.

- Tarixiy romanlarda ayollarning milliy va psixologik xarakteri ochib berilib, uning ichki kechinmalari tahlil qilinadi.

- Gender masallari va huquqiy holatlar turli davrlarda yozilgan tarixiy asarlardagi ayollar obrazini solishtirish hamda ayolning ruhiy iztiroblari, ichki dunyosini ochib berish orqali tasniflanadi.

Ayollar obrazi yorqin aks etgan tarixiy romanlar o'zbek adabiyotida ko'p emas. Risolat Haydarovanning "Javzo" romani [2], Azamat Ziyoning "O'zbek ayollari tarix sahnasida" [3], Buniyodov Z. "Anushtagin Xorazmshohlar davlati" [4], Isaxonova





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Shahodatning “Bibixonim. Turon malikalari”[5], “Gavharshodbegim”[6], “Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog`iga tushgan malika”,[7] To`lqin Hayitning "Vafo malikasi"[8], Xurshid Davronning "Bibixonim"[9] qissasi asarlarida o`zbek ayollari obrazlari keng yoritilgan.

O'zbek adabiyotida ayol obrazining tasviri tarixan bir necha bosqichlardan o'tgan. U dastlab me'moriy-madaniy qadriyatlar, milliy oila an'analari, jamiyatdagi erkaklar bilan munosabat kontekstida ko'proq uyatchan, sokin va sabrli obrazda ko'rsatilgan bo'lsa, keyinchalik ijtimoiy faolligi, intellektual kuchi yuqorida keltirilgan badiiy adabiyotlarda chuqurroq aks ettirilgan. “Bu obraz orqali yozuvchi yoki shoir jamiyatdagi ijtimoiy voqeliklarni, ma'naviy qadriyatlarni, hatto siyosiy muammolarni ham obrazli ifodalagan. Jadid adabiyotida ayol obrazlari, asosan, zulm qurboni sifatida, sovet davrida esa faollik timsoli sifatida tasvirlangan bo'lsa, mustaqillik davri adabiyotida bu obrazlar kuchli shaxs, sabrli ona, fidoyi yor sifatida keng ko'lamda yoritilmoqda. Tarixiy davrlarda shakllangan ayol obrazlari faqat adabiylik bilan emas, balki jamiyatning ma'naviy holatini aks ettirishga xizmat qilgan.

Shu sababli, o'zbek adabiyotida ayol obrazining yoritilishi - bu faqat estetik yoki individual ifoda emas, balki ijtimoiy-madaniy rivojlanish jarayonining ifodasidir.”[10] Shahodat Isaxonova yaratgan Ayollar timsollari orqali millat ruhi, oilaviy qadriyatlar, sabr, mehr, fidoyilik, hayotga bo'lgan munosabat kabi ko'plab tushunchalar talqin etiladi. Undan tashqari adiba asarlarida tarixiy haqiqat, badiiy to`qimadan keng foydalanganligi ko'ramiz. Ayol psixologiyasini tahliliy o'rganish insonning ma'naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhim o'rin tutadi. Adabiy jarayon esa ijtimoiy muhit, adabiy-ma'naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Zero, bashariyatning ongu tafakkuri, ruhiyatidagi yangilanishlar, asosan, adabiyot va san'atda o'z aksini topar ekan, ayollar obrazi hamisha odamlar uchun ichki g'ozallik manbayi sifatida tarixda muhrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev.Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko`taramiz .-Toshkent. O`zbekiston-2018.138-b
2. R.Haydarova .Javzo. 2022. B. 179-182
3. Azamat Ziyo. O`zbek ayollari tarix sahnasida. T.: Fan, 2002. – B. 40.
4. Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. – B.83.
5. Isaxonova Shahodatning “Bibixonim.Turon malikalar
6. Isaxonova Shahodat. Gavharshod begim. T.: Ma`rifat bitiklari, 2023. – 320 b.
7. Isaxonova Shahodat. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog,,iga tushgan malika. – T.: Sano standart nashriyoti, 2018. –480 b.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



8. Hayit To'liqin. Vafo malikasi. Roman.(To'ldirilgan ikkinchi nashri)// –Toshkent : “Yangi asr avlodi”,2005-215 b
9. X.Davron. Bibixonim qissasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2025.–B.384.
10. Jumamuratova Ruxshona. O`ZBEK ADABIYOTIDA AYOL OBRAZI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TALQINLAR.// “ Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot nomli ilmiy,masofaviy ,onlayn konferensiya.7-9 bet.

